



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIDA FALSAFIY AKSIOLOGIK YONDASHUVNI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Shonazarova S.R.

Termiz pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Tayanch soʻzlar: boshlang'ich ta'lim, aksiologik yondashuv, didaktik imkoniyatlar, jarayon, amaliy metodologik muammolar, pedagogika, mazmun, o'qitish, shakllar, axborot texnologiyalari, takomillashtirish.

Ключевые слова: начальное образование, аксиологический подход, дидактические возможности, процесс, практически-методические проблемы, педагогика, содержание, обучение, формы, информационные технологии, совершенствование.

Key words: primary education, axiological approach, didactic possibilities, process, practical methodological problems, pedagogy, content, teaching, forms, information technologies, improvement.

Резюме:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda falsafiy aksiologik yondashuv asosida dars samadorligini oshirish jarayoni, kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda ta'lim uzviyligi, aksiologiya ya'ni qadriyat, unda milliy mentolitimizga xos xususiyatlar, inson va tabiat o'rtasidagi munosabat va muvozanat uzviyligi, o'qitish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek, ta'lim mazmunini takomillashtirish haqida soʻz yuritiladi.

Резюме:

В данной статье рассматривается процесс повышения эффективности уроков на основе философско-аксиологического подхода в начальных классах, целостности образования учащихся младших классов, аксиологии, т. е. ценности, в которой проявляются характеристики нашего национального ментала, отношения между человеком и характере и целостности баланса, преподавания, эффективного использования инновационных педагогических технологий, а также образования идет речь о совершенствовании содержания.

Summary:

In this article, the process of increasing the effectiveness of lessons based on the philosophical axiological approach in elementary grades, the integrity of education in elementary school students, axiology, i.e., value, in which the characteristics of our national menthol, the relationship between man and nature and the integrity of balance, teaching, the effective use of innovative pedagogical technologies, as well as education there is talk about improving the content.

Boshlang'ich ta'limda geografik tushunchalarni falsafiy aksiologik yondashuv asosida shakllantirish darajasi ta'lim muassasasi va ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyati natijalarini ham aks ettiradi. Kasbiy kompetentlikni rivojlanishining o'zini umumta'limda o'quvchi faoliyatini, xuddi shunday ma'lum bir vaqtda rivojlanadigan, funksional tuzilmaga ega shaxsning integrativ sifatini shunchaki baholash mezonlari deb hisoblash mumkin emas. Bu bilan bog'liqlikda ta'lim oluvchilarning kreativ faoliyatning rivojlanganlik darajalarini baholash mezonlarini belgilab olish muhim vazifa sanaladi.

O'quvchilarda bilish faoliyatini falsafiy aksiologik yondashuvga asoslangan holda takomillashtirish tarzi, hayotiy hamda o'quv vazifalarini echish jarayonida turli tushunchalarga murojaat qilgan holda fikrlashni ifodalaydi. Bu jarayonda o'quvchilar turli tushunchalarga murojaat qilgan holda o'z harakatlarini bevosita aql yordamida bajaradilar. Bunda tajribaga asoslangan holda hissiy organlar faoliyatiga tayaniladi. Obrazli fikrlash jarayonida esa, muayyan materiallardan u yoki bu vazifalarni bajarish maqsadida foydalaniladi.

Boshlang'ich sinf o'quv faoliyatini falsafiy aksiologik yondashuv asosida shakllantirish jarayoni o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga asoslangan holda ularning axborotlarga tayanish va mazkur axborotlarning mazmunini qayta ishlashga harakat qiladi. O'quvchilarning bunday tafakkur tarzi ularning idroklari, tasavvurlari va dunyoqarashlarida aks etadi. Bu tarzda tafakkurning reproduktiv (mustaqil bo'lmagan) hamda mustaqil tarzda namoyon bo'ladigan produktiv (mahsuldor), konvergent (o'zaro o'xshash) hamda divergent (tafovutli) turlari mavjud.

Xususan, o'quvchilarning bilishga asoslangan tafakkur tarzi asosan mustaqil bo'lmagan reproduktiv hamda o'zaro o'xshash, ya'ni konvergent fikrlash tarziga xosdir. O'quvchilarning reproduktiv tafakkur tarzlari tayyor bilimlarni o'zlashtirishga asoslangan. Bu ularga o'quv materiallarini o'zlashtirish, esda saqlab qolish imkonini beradi. Bu asosan diqqat va xotiraning imkoniyatlariga tayanilgan holda amalga oshiriladi. O'quvchilarning bunday tafakkur tarzi muayyan pedagogik qimmatga ega. Ularning rivojlanishi esa, o'quv jarayonining muayyan bosqichlarida geografik bilimlarni amalga oshirishda muhim o'rin tutadi.

O'quvchilarning bilishga asoslangan tafakkur tarzini rivojlantirish, ularni intellektual takomillashtirishning muhim shartidir. Bugungi kunda intellektual jihatdan taraqqiy etgan shaxsni shakllantirish uchun, o'quvchilarning bilishga asoslangan tafakkur tarzlarinigina rivojlantirish etarli emas. Unda o'quvchilar tabiat va kishilik jamiyati qonuniyatlarini tushunishlari uchun, ularni ijodiy o'zlashtirishlari va tabiat hamda jamiyat olamiga olib kirishlari lozim. Buning



uchun, o'quvchilarning ko'pdan-ko'p masalalarda o'z shaxsiy nuqtai nazariga ega bo'lishlari talab etiladi. Shu maqsadda ularni ma'naviy, intellektual jihatdan takomillashtirish nihoyatda zarurdir.

O'quvchilarning ijodiy tafakkurlari tabiiyligi, betakrorligi, hozirjavobligi bilan ajralib turadi. Tafakkurning bunday tarzi uchun divergent, ya'ni tafovutli hamda produktiv, ya'ni mahsuldor fikrlash tarzi xosdir. Mahsuldor fikrlash tarziga ega bo'lgan o'quvchilar axborotlarni tanlash, to'plash va muammolarni echishda o'zlarining mustaqilliklari bilan ajralib turadilar. Divergent, ya'ni tafovutli fikrlash tarziga ega bo'lgan o'quvchilar esa, muammolarning echimiga turli tomondan yondasha olishlari bilan alohida namoyon bo'ladilar.

Ta'kidlash joizki, o'quvchilar ilmiy dunyo qarashini falsafiy aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish, fikrlash tarzining turli ko'rinishlarini egallashlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Har bir o'quvchining fikrlash tarzi o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. O'qituvchi ulardagi o'ziga xosliklar, yutuqlar, kamchiliklarni o'z vaqtida payqay olishi lozim, aks holda o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda samaradorlikka erisha olmaydi.

O'quvchilarning intellektual rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan holat, ular tafakkurining boshqa barcha ruhiy jarayonlarga ko'rsatadigan ta'sirini har tomonlama hisobga olishdan iborat. Bunda eng asosiy narsa, o'quvchi tafakkurining uning xotirasi va idrokiga ko'rsatadigan ta'sirini hisobga olishdadir.

O'quvchilarning idrokida moddiy borliq, xalqning turmush tarzini anglash imkoniyatining kengayishi, uning kuzatish jarayoniga aylanishi natijasida nazariy bilish faoliyati sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchilarda kuzatuvchanlikning rivojlanishi asosan boshlang'ich o'quvchi davriga to'g'ri keladi.

O'quvchi xotirasining mantiqiy jihatdan boyishi natijasida u mantiqiy fikr lay boshlaydi. Esga olish esa, o'quvchilarni topilishi zarur bo'lgan tushunchalarni izlashlariga undaydi. Bu esa, o'quvchilarda erkin tarzda shakllangan xotiraning mustahkamlanishiga olib keladi. Ushbu holat o'quvchilarning eslab qolish usullarini egallaganliklarida namoyon bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy tushunchalarni falsafiy aksiologik yondashuv asosida shakllantirishda ularga individual yondashuv nihoyatda muhim hisoblanadi. Bugungi kunda pedagogika fani oldiga o'quvchilarni intellektual rivojlantirish vazifasi o'z echimini kutayotgan davr hisoblanadi, buning uchun har bir o'quvchi va o'quvchilar guruhining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni intellektual rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik tizimni vujudga keltirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.



Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda falsafiy aksiologik yondashuvni takomillashtirishda quyidagi jihatlariga alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Ular:

o'quvchilarni mustaqil va tanqidiy fikrlashga o'rgatish, ko'proq mustaqil bilim olishlarini ta'minlash;

ularni aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini egallashga undash;

har bir darsda o'quvchilarni ijtimoiylashtirishga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlarini taqdim etishdan iboratdir.

Mazkur jarayonda o'quvchilar ilmiy dunyo qarashini takomillashtirish uchun ularni mustaqil va tanqidiy fikrlashga yo'naltirishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyatini falsafiy aksiologik yondashuv asosida shakllantirish va ularning ruhiy, jismoniy hamda ma'naviy olamiga oid nazariy bilimlar va ularni takomillashtirish ehtiyojlarini farqlash lozim.

O'z navbatida mazkur bilimlarni muayyan ko'nikmalarni egallamasdan turib o'zlashtirish mumkin emas. Shu tariqa o'quvchilarda bilim sifatini samarali shakllantirishning muhim jihatlaridan biri, ulardagi intellektual faoliyat ko'nikmalarining shakllanganlik darajasiga asoslanishdan iboratdir.

O'quvchilarni intellektual rivojlantirishda ularning o'zlari va o'z faoliyatlariga bo'lgan hissiy munosabatlari muhim o'rin egallaydi.

Hissiyot - shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalar, kishilar hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlaridan kelib chiqadigan kechinmalaridir. O'quvchilarning his-tuyg'ulari, kechinmalari, ehtiyojlari ularning intellektual faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi. Unda o'quvchilarning hissiy holatlarini ifodalashga ko'maklashadi. Shuningdek, o'quvchilarning ehtirosi ularning ehtiyojlaridan dalolat beradi va ularni intellektual faoliyatga undaydi. O'quvchilarni intellektual rivojlantirishda dastlab ularning aqliy quvvatlarini taraqqiy ettirish muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilar o'z faoliyatlari davomida nafaqat ijobiy, balki salbiy his-tuyg'ulariga ham ehtiyoj sezadilar. Salbiy hissiyotlar bilan bog'liq holda o'quvchilarga ijobiy hissiyotlar ham nihoyatda zarur. Bunday kechinmalar ularni o'z o'quv faoliyatlarini o'zgartirishga undaydi. Har bir o'quvchi o'quv jarayonida turli-tuman, mazmun jihatdan boy kechinmalarga ehtiyoj sezadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda falsafiy aksiologik yondashuvni shakllantirish jarayoni o'ta murakkab jarayondir. O'quvchilar har doim o'zlariga nisbatan insonparvarona, demokratik va hissiy-qadriyatli munosabatda bo'lishlaridan manfaatdordir. Bunday munosabatlar o'qituvchi va ota-



onalarning his-hayajonga boy holatlari orqali namoyon bo'ladi. Ular o'quvchi tushunchalarini baholovchi hukmlar va olqishlovchi kechinmalardir.

O'quvchilarda falsafiy aksiologik yondashuvni shakllantirishga bo'lgan munosabatlarning o'zaro o'xshash darajalarini aniqlash nihoyatda muhimdir. Bu o'z navbatida o'quvchilarning o'z intellektual faoliyatlari natijalarini baholashlariga bo'lgan hissiy-qadriyatli munosabatlarni aniqlash uchun zarurdir. O'quvchilarning bajarayotgan intellektual faoliyatlari, mazkur faoliyatning maqsadlari va vositalari bilan o'zaro bog'liq bo'lishi lozim.

O'quvchi o'zining intellektual faoliyati va xulq-atvorini ixtiyoriy tarzda, ongli tashkil etishi va boshqarishi lozim. U o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishish yo'lida qiyinchiliklarni bartaraf eta olishi nihoyatda zarurdir. O'quvchini intellektual rivojlantirishda ixtiyoriylikka asoslangan tarkibiy qismi uning o'z-o'zi bilan aloqaga kirishishi, o'zining rivojlantiruvchi va bilishga asoslangan faoliyatini boyitishi bilan tavsiflanadi. Shu asnoda o'quvchilarda geogragik tushunchalarni shakllantirish davomida ularning xohish-istaklarini hisobga olish, ularning his-hayajonlari va ixtiyoriy harakatlariga tayaniladi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'quvchilarda geografik tushunchalarni falsafiy aksiologik yondashuv asosida shakllantirishning maqsadli yo'nalishlari;

- o'quvchilarda geografik tushunchalarni falsafiy aksiologik yondashuv asosida shakllantirish jarayonida hissiy kechinmalarning namoyon bo'lishi;

- o'z intellektual faoliyatlari natijalarini baholash layoqatlari;

- intellektual faoliyat jarayonida ijodiy fikrlash, qayta ishlash, o'zining imkoniyatlari va layoqatlarini takomillashtirish;

- o'z shaxsiyatini rivojlantirish va aqliy faoliyatga safarbar qilish layoqati;

- qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida o'zining intellektual imkoniyatlaridan unumli foydalana olish, o'quvchilarda geogragik tushunchalarni shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish layoqati;

- intellektual faoliyat ko'rsatish jarayonida o'zi egallagan bilimlarini namoyon qila olish va boyitish layoqati kabilardan iborat.

O'quvchilarda falsafiy aksiologik yondashuvni shakllantirish ehtiyojining hosil bo'lishi, o'ziga xos hissiy ta'sirning vujudga kelishiga xizmat qiladi. O'quvchilarning geogragik tushunchalarni shakllanganlik darajasi baho yordamida aniqlanadi. O'quvchilarning o'z-o'zlariga bergan baholarida ularning bilimlari va o'zlashtirgan ma'naviy sifatlari mujassamlashgan bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida falsafiy aksiologik yondashuvni shakllantirish jarayoni jihatlarini aniqlash natijasida, ularda sermazmun va ko'pjarayonli faoliyat tarkib topadi. Har bir o'quvchining o'ziga xos



imkoniyatini aniqlamasdan turib, ularning o'zlashtirgan bilimlari va ma'naviy sifatlarini ko'nikmalar va layoqatlarga aylantirish mumkin emas. Mazkur yo'nalish o'quvchining chuqur o'ylangan mantiqiy harakatlarni amalga oshirish uchun nihoyatda zarurdir.

Boshlang'ich sinflarda falsafiy aksiologik yondashuvni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining sifatini yaxshilash bilan bir qatorda, unga qo'yiladigan talablar va mazkur o'quv jarayoni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladigan bilimlarni ham o'zlashtirishlari lozim. O'qituvchilar o'quvchilarga taqdim etiladigan o'quv materiallarining mazmun-mohiyati, qurilishi, ularni tanlash manbalarini ham bilishlari muhim o'rin tutadi. Masalan, o'qituvchilar o'quv materiallari hajmi va mazmunini kengaytirishlari, o'quv jarayonini loyihalashtirishlari, bunda o'quv vaqti imkoniyatlarini inobatga olishlari muhimdir. O'quv jarayoni loyihalarini mujassamlashtirish natijasida uning yaxlit tavsifi vujudga keladi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayev T. Turmush sohasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining dialektikasi: f.f.d... diss. - Toshkent, 1992. - 257 b.
2. Ta'limni rivojlantirishning falsafiy va psixologik muammolari: Ta'limni rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti. M.: Intor, 1994.-128 b .
3. Malikova P.C. Maktab o'quvchilarining ta'lim faoliyatini shakllantirish (geografiyani o'qitish misolida). Ilmiy va amaliy qo'llanma. Ufa: Bash.GPI , 1998. -120 s.
4. Mardonov Sh. Pedagogik ta'lim tizimida ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish.- T.: Fan, 2006. -232 b.
5. Ma'murov B.B. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari. Monografiya. - T.: "Nihol", 2014. -94-b.
6. Nazarov K. Qadriyatlar falsafasi (aksiologiya). Toshkent. Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti - 2004. 200 b.
7. Nishonova S. Milliy qadriyatlar va barkamol inson tarbiyasi. Xalq ta'limi. - T., 1999 №3-B.16-19.
8. Najmiddinova G.N. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv-biluv faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: p.f.n., diss. -T., 2006. - 159 b.